

## **O‘zbekkosmos “INNOPROM. Markaziy Osiyo” ko‘rgazmasida**

Toshkent shahridagi CAEx ko‘rgazmalar majmuasida oltinchi “INNOPROM. Markaziy Osiyo” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi o‘z ishini boshladi. Ushbu nufuzli tadbir Markaziy Osiyo davlatlari sanoati, innovatsiyalari va texnologik salohiyatini xalqaro maydonda namoyish etish uchun strategik platforma vazifasini o‘tashi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur jarayonda “O‘zbekkosmos”ning ishtiroki alohida e‘tiborga loyiq. Agentlikning ko‘rgazmadagi stendi mamlakatda kosmik texnologiyalarni rivojlantirish, ularni iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiya qilish hamda ilmiy salohiyatni oshirish borasidagi yutuqlarni namoyish etmoqda. Ayniqsa, sun‘iy yo‘ldosh ma‘lumotlari asosida qishloq xo‘jaligi, ekologiya va urbanistika sohalarida olib borilayotgan ishlanmalar investorlar va xalqaro hamkorlar uchun katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Shuningdek, agentlik muassisligidagi Kosmik monitoring va geoaxborot texnologiyalari markazining ishtiroki ko‘rgazmaning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Markaz tomonidan taqdim etilayotgan geoaxborot tizimlari, masofadan zondlash texnologiyalari va raqamli xaritalash yechimlari davlat boshqaruvi, resurslardan samarali foydalanish va ekologik monitoringni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Bu esa raqamli iqtisodiyot sharoitida ma‘lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu ko‘rgazma O‘zbekiston uchun sanoat va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim drayver bo‘lib xizmat qilmoqda. “O‘zbekkosmos” agentligi va uning muassisligidagi markazi esa mazkur jarayonda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini namoyon etuvchi asosiy institutlardan biri sifatida maydonga chiqmoqda.